

**AULDOUS HUXLEY**

**Xudayarova Hilola Nu'mon qizi**

*Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti talabasi*

*Telefon raqam:+998(94)0891500*

*E-mail: [xudayarovahilola1@gmail.com](mailto:xudayarovahilola1@gmail.com)*

*Ilmiy rahbar: Kenjayeva Mukhlisa Bakxadirovna*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada mashhur ingliz faylasufi va yozuvchisi Oldos Leonard Hakslining bolalik paytlari birinchi jahon urushi davrida uning hayoti va adabiy faoliyati, shuningdek yozgan asarlari haqida ko'plab qiziqarli ma'lumotlar beriladi. Asarlarining orasida eng mashhur va eng ahamiyatli asarlaridan biri "The Brave New World"(Jasur Yangi Dunyo) romaniga ham alohida to'xtalib o'tildi.

**Kalit so'zlar:** bolalik yillari, ingliz faylasufi, adabiy faoliyati, ziyoli oila farzandi, Aldous ismi tarixi, mulohazali bola, og'ir ko'z kasalligi, "Buyuk Urush", fransuz tili, muvaffaqiyatli yozuvchi, ijtimoiy satirik, og'iz bo'shlig'i saratoni, ichki ziddiyat, Ilmiy fantastik roman.

Ingliz adabiyotining mashhur yozuvchisi va faylasufi Oldos Leonard Haksli 1894-yil 26-iyul kuni Angliyaning Surrey shtatidagi Godalming shahrida tug'ilgan. Ular oilada uch farzand edilar va Aldous ularning kenjasini edi. Uning ota-onasi ham ziyoli kishilar bo'lishgan. Otasi yozuvchi va maktabda o'qituvchi bo'lib ishlar edi. O'z faoliyati davomida "The Cornhill" jurnalini tahrir qilgan. Leonard Hakslining rafiqasi va Aldousning onasi Yuliya Arnold ham ,albatta, ziyoli oila farzandi bo'lgan. Uning amakisi Metyu Arnold shoir va tanqidchi bo'lib xalqqa tanilgan. Uning tug'ishgan opasi Missis Xonim ham ajoyib asarlar muallifi edi. Yuliya esa o'z faoliyati davomida "Prior's Field School'ga asos qolgan. Yuliya kenja farzandining ismini opasining romanlaridan biridagi qahramon sharafiga "Aldous" deb qo'yadi. Aldous bolalik paytalarida "Ogie" taxallusini olgan edi. Va juda kichkina bo'lishiga qaramasdan, ularning juda chuqur o'ylar edi va har narsadan mantiq izlashga harakat qilar edi. Yoshlik chog'laridanoq rasm chiqishga juda qiziqar edi. Shu bilan birga u otasining laboratoriya xonasiga kirib, turli Yangi narsalarni o'rganishni xohlardi. Maktab yoshiga yotganiga so'ng u Godalming yaqinidagi Hillside maktabiga o'qishga kiradi. Bu maktabda o'zining onasi o'qituvchi bo'lib ishlar edi. Bir necha yil davomida bu maktabda o'qib, tamomlagandan so'ng, "Eton" kollejiga o'qishga kiradi. 14 yoshga to'lgan paytida Aldous mehribon orasidan ayrilib qoladi. Dadasi esa keyinchalik ikkinchi marta ulanadi. 1911-yil Aldous og'ir ko'z kasalligiga chalinib, bir necha yillar davomida ko'rish qobiliyatini yo'qotadi. Bunday og'ir musibat yosh Aldousning bolalarcha kelajakda "shifokor bo'lish" haqidagi orzusini yo'qqa chiqardi. Shundan

so'ng u biologiyadan ko'ra adabiyotga ko'proq qiziqib qoldi va 1913-yil oktyabr oyida Oksforddagi Balliol kollejiga o'qishga kiradi. Ingliz adabiyotini ham o'sha yerda o'rganadi. 1916-yil yanvar oyida "Buyuk Urush" uchun ko'ngillillardan bo'lib Britaniya armiyasiga qo'shilishga ahd qildi. Ammo, sog'ligidagi muammosi, ya'ni bir ko'zining yaxshi ko'rmasligi sababli uni armiyaga olishmaydi. Bundan so'ng Aldous bor e'tiborini yana o'qishga qaratadi va 1916-yil iyunida oyida bakalavrni birinchi darajali imtiyozlar bilan tugatdi. O'qishini tugatgandan so'ng, u otasidan o'zini qarzdor deb bilar edi. Shuning uchun u tezroq ish topishga harakat qildi va buni uddaladi. Bir yil davomida Eton kollejida fransuz tilidan dars berdi. Bu faoliyati davomida bir nechta shogirdlar ham topdi. Ular Erik Bler va Stiven Runsimanlar edi. Ularning aytishicha, Aldous darsda tartibni yaxshi saqlay olmasada, fransuz tilini mukammal bilardi. 1920-yillarda o'z ish faoliyatini Angliyaning shimoli-sharqidagi Durham okrugidagi Billingemdag'i Brunner va Mond hududlarida joylashgan kimyo zavodida davom ettiradi. Uning bir asarida shunday deyiladi:-Mening ushbu romanim uchun muhim manba bu "Rejasiz uyg'unlik dunyosida tartibli koinot" haqidagi tajribam edi.

Xaksli o'zining birinchi romanini 17 yoshida yozib tugatadi, ammo nashr ettirmaydi. Bu romandan so'ng odamlar uni muvaffaqiyatlari yozuvchi va ijtimoiy satirik sifatida tanishni boshlaydi. Shundan so'ng, 20 yoshida yozuvchilikka jiddiy kirishadi. Uning birinchi nashr etilgan romanlari ijtimoiy satiralar bo'lib, ular quyidagilardir: "Krom Sariq", "Antik Hay", "O'sha Bepusht Barglar", "Nuqtaga qarshi nuqta". "Jasur Yangi Dunyo" asari esa uning 5-romani bo'lib, birinchi distopik asari edi. 1920-yillarda u Vanity Fair va Britaniyaning Vegue jurnallarida ham ishlab ko'rdi. Birinchi Jahon urushi paytida Haksli Oksford yaqinidagi Garsington Manorda, Xonim Ottoline Morellning uyida fermer bo'lib ishlagan. Aldous Haksli belgiyalik ayol Mariya Nis bilan Garsingtonda turmush quradi. 1920-yillarda ular o'zlarining kichik o'g'li bilan birgalikda Italiyada yashashgan. Uning bu davrdagi asarlari ilmiy taraqqiyotning noinsoniy jihatlari haqidagi romanlar va pasifist mavzudagi romanlarni o'z ichiga oladi. Bunday asarlarga "Jasur Yangi Dunyo" va "G'azodagi ko'rlik" romanlarini misol qilish mumkin. Londonda distopik asar "Jasur Yangi Dunyo" romani asosida suratga olingan filmda muallif ommaviy ishlab chiqarishni va Pavlovning konditsionerligi tamoyillari asosida ishlaydigan jamiyatni tasvirlaydi. Hakslining "G'azodagi ko'rlik" asari F.Matthias Aleksandrga juda kuchli ta'sir qilganini va u bu asarni o'zining harakterini ifodalovchi belgi sifatida tushunganini bildirgan. Hakslining Sharq donishmandlik an'analari bilan shug'ullanishi zamonaviy ilm-fanni yuqori baholash bilan to'liq mos kelar edi. Biograf Milton Birbaumning yozishicha Haksli ham ilm-fanni, ham Sharq dinini o'rgangan edi. Haksli 1963-yil 22-noyabr kuni og'ir og'iz bo'shlig'i saratoni kasalligidan vafot etdi.

"Jasur Yangi Dunyo" romani haqida: Ushbu roman Aldous Hakslining birinchi distopik romani bo'lib, unda ommaviy ishlab chiqarish, konditsionerlardan

foydalani layotgan hayot, bir so'z bilan aytganda o'sha davrdan ancha ilgarilab ketgan jamiyat va dunyo haqida yozilgan. Shuningdek ilm-fan va samaradorlikni o'zida birlashtirgan Jahon davlatlarining kelajakdagi jamiyatining ko'rinishi haqida yozilgan. Bu jamiyatda his tuyg'ular, o'zi hoxlaganicha fikrlab, turli xayollar va orzular qilish faqat bolalik paytlarida bo'ladi. Kattalarda esa, hattoki, doimiy munosabatlar ham bo'lmaydi. Chunki ular har bir odam boshqa bir odamga qaram, ya'ni ma'lum bir manfaatlari bor deb hisoblashardi. Bu asarda hukumat fuqarolar hayotining barcha jabhalarini nazorat qiladi. Shuning uchun ham hukumat nazorati insoniylikning yo'qolishiga sabab bo'ladi degan g'oya asarning asosiy mavzusi bo'ladi. Odamlar hukumat laboratoriylarida yaratiladi va katta bo'lishadi. Ular davlat muassasalarida tarbiyalanadi va jamiyat qadriyatlarini o'rganishadi. Bu asar oddiy fuqarolar uchun bir ogohlantirishdir. Haksli odamlarga agar ular moddiy va jismoniy zavqlarga haddan tashqari ko'p e'tibor qaratishsa, ilg'or texnologiyalar ortidagi axloqni e'tiborsiz qoldirishga, ular oxir-oqibat hukumat tomonidan to'liq nazorat ostiga olinadi va o'zlarining mustaqilligini yo'qotishi mumkinligini eslatmoqchi edi. "Jasur Yangi Dunyo" asarining to'qnashuvi asosiy qahramon Bernardning o'z jamiyatiga to'liq mos kelar olmasligi bo'ladi. U hayotdan, ya'ni hukumatdan u uchun belgilangandan ko'ra ko'proq narsani hoxlaydi va bu natijada ichki ziddiyatga sabab bo'ladi. Ichki ziddiyatni yuzaga keltirgani uchun esa uni surgun qilishadi. Bernard, shu bilan birgalikda asardagi eng asosiy qahramon edi. Chunki uning qarashlari bo'limganida u hech qachon yovvoyi hayvonlar qo'riqxonasiga surgun qilinmagan va Jonni ham topolmagan bo'lar edi. U Jonni uchraganidan so'ng shu narsa ma'lum bo'ldiki, Jonn Bernardni surgun qilgan direktorning o'z o'g'li bo'ladi. Bernard buni bo'lganidan so'ng Jonni Jahon davlatiga, ya'ni omma e'tiboriga olib chiqadi va katta shuhrat qozonadi. Biroq, Jonn u yerda odamlarning yashash tarzida dahshatga tushadi va uning harakatlari yaqin do'sti Bernard bilan surgun qilinishiga sabab bo'ladi. Jonn bu "Jasur Yangi Dunyo" ga dosh berolmay o'zini o'sib o'ldiradi.

Xulosa: Aldous Haksli yosh bolalik paytlaridanoq juda qiziuvchan, mulohazali, oddiy narsalarni ham chuqur o'laydigan va har narsadan mantiq izlaydigan bola bo'lgan edi. Shuning uchun ham kelajakni ancha oldindan ko'rib, odamlarni ko'r-ko'rona zavq-shavqqa berilib zulmatga tomon kelmasliklari uchun ogohlantirish maqsadida o'zining distopik romanini yozadi. U juda irodali inson bo'lganligi uchun ham hayotidagi juda og'ir kasalliklarni ham yengib, ijod qilishdan to'xtamaydi.

#### **List of references**

1. <https://study.com/academy/lesson/brave-new-world-by-aldous-huxley-summary-characters-themes.html>
2. [https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Aldous\\_Huxley](https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Aldous_Huxley)
3. Chandler, Raymond. "The Big Sleep." Vintage Crime/Black Lizard, 1988.

4. Doyle, Arthur Conan. "The Adventures of Sherlock Holmes." Penguin Classics, 2001.
5. Christie, Agatha. "The Murder of Roger Ackroyd." William Morrow Paperbacks, 2011.
6. Dull, C., Zhuangzi, J., & Thoreau. Wandering, Nature, and Freedom. *Journal of Chinese Philosophy*, 39(2), 222–239. (2012).
7. Emerson, R.W. Essays and Poems by Ralph Waldo Emerson. New York: Barnes & Noble Books. 119 LANGUAGE CIRCLE: Journal of Language and
8. Forde, S. Natural Law, Theology, and Morality in Locke. *American Journal of Political .* (2001)